



MECHANISMS AND SOCIAL FACTORS OF RENEWAL OF HISTORICAL MEMORY IN MODERN UZBEKISTAN SOCIETY

Farruh Nabiyeu

Independent Researcher

Namangan State University

Namangan, O'zbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Historical memory, transformation, mechanisms of renewal, social factors, modern Uzbek society, national identity, spiritual heritage, globalization, information space, historical consciousness, social communication, modernization processes, evolution of social consciousness, reinterpretation of cultural heritage.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article analyzes the mechanisms of renewal of historical memory in modern Uzbek society and the social factors influencing this process. In the post-independence period, the processes of restoring national identity, re-evaluation of spiritual heritage, and interpretation of historical realities based on the requirements of the time have intensified. The article scientifically studies the main factors influencing the transformation of historical memory - globalization, expansion of the information space, state policy, the education system, modern values in the minds of young people, and new forms of social communication. It also draws conclusions about the role of historical memory in strengthening social cohesion in society, forming national identity, and developing social consciousness. The study shows that the processes of historical memory in modern Uzbekistan are complex, multifactorial, and dynamic.

ZAMONAVIY O'ZBEK JAMIYATIDA TARIXIY XOTIRANING YANGILANISH MEKANIZMLARI VA IJTIMOIIY OMILLARI

Farruh Nabiyeu

Mustaqil tadqiqotchi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzl: tarixiy xotira, transformatsiya, yangilanish mexanizmlari, ijtimoiy omillar, zamonaviy Oʻzbek jamiyati, milliy identitet, maʼnaviy meros, globallashuv, axborot makoni, tarixiy ong, ijtimoiy kommunikatsiya, modernizatsiya jarayonlari, ijtimoiy ong evolyutsiyasi, madaniy merosni qayta talqin qilish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy Oʻzbek jamiyatida tarixiy xotiraning yangilanish mexanizmlari hamda ushbu jarayonga taʼsir koʻrsatuvchi ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Mustaqillikdan keyingi davrda milliy identitetni tiklash, maʼnaviy merosni qayta baholash va tarixiy voqeliklarni zamon talablari asosida talqin qilish jarayonlari kuchaydi. Maqolada tarixiy xotiraning transformatsiyalanishiga taʼsir etuvchi asosiy omillar – globallashuv, axborot makonining kengayishi, davlat siyosati, taʼlim tizimi, yoshlar ongidagi modern qadriyatlar hamda ijtimoiy kommunikatsiyaning yangi shakllari – ilmiy asosda oʻrganiladi. Shuningdek, tarixiy xotiraning jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, milliy oʻzlikni shakllantirish va ijtimoiy ongni rivojlantirishdagi oʻrni haqida xulosalar keltiriladi. Tadqiqot zamonaviy Oʻzbekistonda tarixiy xotira jarayonlarining murakkab, koʻp omilli va dinamik xarakterga ega ekanini koʻrsatib beradi.

МЕХАНИЗМЫ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ОБНОВЛЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Фаррух Набиев

Независимый исследователь

Наманганского государственного университета

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: тариксий хотира, трансформация, янгиланиш механизмлари, иджтимой омиллар, замонавий узбек джамияти, миллий идентифицет, маʼнави мерос, глобаллашув, акборот макони, тариксий онг, иджтимой коммуникация, модернизация харайонлари, иджтимой онг эволюцияси, мадания меросни гайта талкин килиш.

Аннотация: В статье анализируются механизмы обновления исторической памяти в современном узбекском обществе и социальные факторы, влияющие на этот процесс. В период после обретения независимости усилились процессы восстановления национальной идентичности, переосмысления духовного наследия, интерпретации исторических реалий с учетом требований времени. В статье научно исследуются основные факторы, влияющие на трансформацию исторической памяти – глобализация, расширение информационного пространства, государственная политика, система образования, современные ценности в сознании молодежи, новые формы социальной коммуникации. Также

делаются выводы о роли исторической памяти в укреплении социальной сплоченности общества, формировании национальной идентичности и развитии общественного сознания. Исследование показывает, что процессы исторической памяти в современном Узбекистане сложны, многофакторны и динамичны.

Kirish. Zamonaviy o'zbek jamiyatining asosiy xususiyatlaridan biri hozirgi global o'zgarishlar davrida milliy davlatchiligimizning tobora mustahkamlanishiga erishish hamda jahon hamjamiyati bilan teng munosabatlarini rivojlantirish, dunyoda munosib o'zbek nomini saqlashimiz uchun harakat qilishimiz lozimligidadir. Bu borada mamlakatimizda qiladigan bir qator ma'naviy-ma'rifiy ishlar mavjud bo'lib, ularni aslo kechiktirib bo'lmaydi. Bularning birinchisi, yoshlar ta'limi va tarbiyasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish, ikkinchisi, yoshlarda Vatanga dahldorlik hissini uyg'otish. Bunda ularning Vatan taqdiri, taraqqiyoti, global siyosiy muvozanatlar buzilayotgan bir davrda uning yashab qolishida madad bo'lish bo'lsa, uchinchisi, yoshlarning milliy xotirasini bugungi turli geosiyosiy tendensiyalar avj olayotgan zamonda takomillashtirib borishdir.

“Aynan ushbu milliy istiqlol mafkurasi, milliy g'oya, milliy falsafa shaklida paydo bo'layotgan munosabatlarimiz butun o'tmishimizni yangicha nazar bilan baholash, uni qaytadan ko'rib chiqish, shu asosda tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni shakllantirishni kuchli bir ehtiyoj darajasiga ko'tarmoqda”[1].

Har qanday sistemada tarix jamiyat va inson uchun buyuk xotira vazifasini bajaradi. Inson va jamiyat har qachon va har vaqt xotira bilan mavjud. Hatto Nayman ona qissasidagi manqurt Jo'lamonning ham oz bo'lsa-da xotirasi yashab qoldi. Demoqchimizki, murakkab va psixologik jarayon sifatida xotira inson bilan yashab u bilan birga shakllanib, rivojlanib boradi. Inson jism sifatida o'z umrini yashab vafot etadi va bu sikl u paydo bo'lgandan beri davom etib kelmoqda. Ammo xotira insonning hayoti davomida to'plangan malaka va bilim, tafakkur va idrok, dunyoqarash va anglash, iste'dod va qobiliyat hamda axloq va tarbiya kabi malakalarni o'zida mujassam etib, boshqa individ yoki jamoa, guruh o'rtasida yashashda davom etadi. Uning muhim tomoni ham ana shu davomiyligidir. Shuning uchun u shaxsni yoki jamiyatni yuksaklikka olib chiqishi va yo jarlikka olib borishi ham mumkin. Jamiyat o'z o'tmishi bilan faxrlanishi, uni ijtimoiy mas'uliyat bilan rivojlantirishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy xotirani o'rganishda ijtimoiy-madaniy sharoitlarning o'zgarishi, avlodlar o'rtasidagi qadriyat “bo'shliqlari”, tarixiy o'tmishni soxtalashtirish, yakka tartibdagi amaliy tajribaning biografik xotirada aks etishining sotsial psixologik tahlilida o'tmish

jarohatlarini xotirada aks etishi (Rodjer Braun, Jeyms Kulik), jamiyatda jamoaviy xotiraning namoyon bo'lish xususiyatlari (M.Xalbvaks) mavzusida olib borilgan tadqiqotlar ilmiy qimmatga egadir.

Jamiyat o'tmish xotiralarining vujudga kelishi va shakllanib borishiga doir tahlillar, xotira maskanlarini aniqlash hamda uning "o'tmish timsoli"ni yaratishdagi rolini ko'rsatish kabi masalalrni O.O.Dmitriyevaning[2] tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Jamiyatda tarixiy vaqtning ahamiyati va uning kishilar xotirasini rivojlantirishdagi vazifalari P.A.Zaklinskiyning asarlarida uchraydi. Tarixiy xotirani rivojlantirishda jamiyatdagi ijtimoiy institutlar, xususan, muzey va arxivlar faoliyatining o'rniga doir tadqiqotlar O.A.Bojchenkoning ilmiy izlanishlarida ko'rinadi. Jamiyatda milliy o'ziga xoslik va madaniy jihatlarni rivojantirish, globallashuv sharoitida madaniy integratsiya jarayonlari va ularda tarixiy xotiraning asosiy funksiyalari, zamonaviy jamiyatlarda insonning o'z o'tmishi va uni idrok etishidagi davomiylik masalalariga I.V.Morozova tadqiqotlarida alohida to'xtalangan. Tarixiy xotira muammosi rossiyalik O.Sgibneva, A.Samiyev, A.Leopa va boshqa tadqiqotchilarning dissertatsiyalarida falsafiy nuqtayi nazardan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Empirik tadqiqot, mantiqiylik, tizimlilik, analiz, sintez, o'zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Ijtimoiy-tarixiy xotira faoliyatining natijasi bo'lgan milliy xarakter va milliy madaniyatning o'zaro chambarchas bog'liqligi jamiyatni identifikatsiyalashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, tuzum, diniy e'tiqod, tarixiy xotirada mujassamlashib, kundalik hayot tarzida aks etib turadi. Bizning fikrimizcha, urf-odat va marosimlar muayyan xalq, millat va davlat to'g'risida tasavvur beradigan, uning o'tmishini bugungi kuni orqali ertangi kun bilan bog'laydigan xalqa, boshqa xalqlar uchun "vizit kartochkasi", ya'ni shu xalqni tanib olish uchun yetarli belgidir. Bunday madaniy meros ijtimoiy hayotning hamma jabhasida namoyon bo'ladi. Masalan, "palov" deganda ko'p davlatlar o'zbek milliy taomini, "tikila" des janubiy Amerika xalqlariga xos ichimlikni, "ikebana" deganda yapon milliy taomini tushunadi.

Ushbu iziq-ovqat va ichimliklar millatning milliy ruhiyati mevasi sifatida qabul qilinadi va unda milliy o'ziga xoslik mujassamligini bildirib turadi. Bular millatning nafaqat ruhiyati, balki asotir va afsonalari, naql va matallarini shakllantiradi. O'zbekcha palov haqida xalqona ijobiy ma'noda "o'ldirsa ham osh o'ldirsin" degan hazilnamo gaplar saqlanib qolgan.

Tarixiy xotira ham induvidual, ham jamoaviylik ko'rinishida vujudga keladi va rivojlanib boradi. Ayniqsa, yakka shaxsda shakllangan tarixiy xotira uning ijtimoiylashuvi natijasida

jamoviy xotirasini paydo qilib boradi. Bu jarayon, ya'ni jamoaviylik shakli sharq xalqlarida ustuvor ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "g'arbda individualizm, o'zbeklarda jamoaviylik ruhi ustuvor ekanini qayd qilgan"[3]. G'arb kishisida vujudga keladigan individual tarixiy xotira yomon jihat emas, balki ratsional yondashuvga ega bo'lgan qarashlar, xotiralar majmuasi sifatida ko'riladi va keyin jamoaviylikka birikadi. Bizning fikrimizcha, tarixga nisbatan nigilistik kayfiyatni shakllantirishda, asosan, salbiy rol o'ynaydi. Faqat o'zini, o'z erki va manfaatini, binobarin, o'z nafsini o'ylaydigan odam uchun biror-bir ijtimoiy guruh, jamoa yoki boshqa birlikka mansublikni his qilish ikkinchi darajali bo'lib qoladi. "Shaxslar faqat bitta guruhga mansub emas, balki bir nechta ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etganligi sababli, xotiradagi individual farqlar har bir insonning butun hayoti davomida trayektoriyasining natijalarini ifodalaydi. Shaxsiy xotira faqat har bir inson boshdan kechirgan ijtimoiy o'zaro munosabatlarning murakkabligini ochib beradi"[4].

Dunyoda har qanday millat borki, qadim-qadimdan erk va ozodlik uchun kurashib kelgan. Bunda milliy ong millatlar yoki xalqlarni birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Ana shu milliy ong mustaqillik tuyg'usi bilan milliy o'zlikni anglashga yordam berib, o'zining tarixiy merosini qadriyat sifatida jamiyatda milliy birdamlik va umummanfaatni keltirib chiqargan. Shu sababdan tarixiy meros va qadriyatlar davlat hamda boshqaruvning kelajak taqdirini belgilab beradi, bugungi global dunyoda yashab qolishning ma'naviy sharti sifatida qaraladi.

Agar davlat jamiyatda milliy va tarixiy ongni susaytira, tarixiy xotira zaiflashadi, natijada milliy o'zlikka putur yetib, Vatan va vatanparvarlik hissi o'lib boradi. Bu nimaga olib keladi? Bu shunga olib keladiki, jamiyat va davlat ma'naviy-ijtimoiy tanazzullga yuz tutadi. Buni nimalarda ko'rishimiz mumkin. Bir davlatda boshqa madaniy qadriyatlarning ustuvorligida, milliy tilga bo'lgan salbiy munosabat va o'zga tilga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilishida, o'z tarixidan nafrat hissida, o'tmishga bo'lgan loqaydlik va unutuluvchanlik kayfiyatda ko'rishimiz mumkin.

Afsuski, so'nggi yillarda davlat boshqaruvida xorij tillariga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, milliy tilga e'tibor pasayib bormoqda. Buning salbiy oqibatlarini hali keyingi o'n-o'n besh yillarda milliy xususiyatlarning yo'qolib borishida ko'ramiz. Shuningdek, migratsiyaning oldini olish o'rniga rag'batlantirilishi migrantlar borib ishlab pul topayotgan davlatlar va uning siyosiy-ijtimoiy ambitsiyalarini qo'llovchi toifalarni shakllantirmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasiga borib ishlashni istovchi har qanday migrant, albatta, rus tili va tarixidan imtihon topshirishi shart. So'nggi vaqtlarda inson tarixiy madaniyati, tarixiy xotirasini shakllantiruvchi vosita hamda o'tmishni eslatib turuvchi moddiy yodgorliklarning ayrim kishilar tomonidan vayron etilishi yoki buzib tashlanishi huddi varvarlikdan boshqa narsa emas. Shunda o'ylanib

qolasan kishi, o'zi biz milliy tariximizdan ma'naviy oziqlanishni bilamizmi? Afsuski yo'q. Bugun shunday vaziyat paydo bo'ldiki, buni o'zbek ilm ahli o'z vaqtida oldini olmasa, kelajak kechirmaydi. U ham bo'lsa, har qanday topshiriqni ikkilanmay, mulohaza etmay boshliq yo amaldor talabiga ko'ra bajarish lozim degan qarashning shakllanib ulgurganidir. 2018-2023-yillar davomida o'ndan ortiq tarixiy yodgorliklarning buzib tashlanishi buning yaqqol isbotidir. Aslida ular jamiyat hayotidagi tarixiy xotiraning ifodasi bo'lmish tarix madaniyatini shakllantiruvchi muhim vosita ham hisoblanar edi

Xulosa. Bugungi kunda jamiyatimiz zamonaviy sivilizatsiyaning butunlay yangicha tafakkuri hamda insonparvarlik g'oyalarining yangi davrini boshidan kechirmoqda. Ayni ana shu o'zlikni anglash hodisasi mamlakatimizda taraqqiyotning keyingi bosqichlarini belgilab bermoqda. Shu boisdan Sharq uyg'onish davri tarixi va merosini, buyuk insonlarning tarixdagi o'rni va rolini aholiga chuqur o'rgatmoq lozim. O'tmishni zamonaviy idrok etishda, albatta, "patrimoine" (meros) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Fransiyalik olim, tarixchi Kshishtof Pomyan tarixiy merosni ifoda etuvchi "Semiofor (o'tmishning moddiy izlari, timsoli, tarixiy obyekt, avliyo va anbiyolar yodgorliklarini eslatib turuvchi va ayni paytda marosimlar, udumlarning bir qismi)" tushunchasini muomalaga kiritdi. Bugungi kunda meros tushunchasi yanada kengayib, markazlashtirishni talab etmoqda deydi, Artogyu. Uning fikricha, har qanday me'moriy yangilik tarixdir va uni tarixiylashtirish kerak. Ammo har qanday merosga qiziqishda mohiyatan vaqtni hisobga olmoq, aniqrog'i, bir xil munosabat asosida ushbu merosni kelajakka yetkazish mas'uliyati ham turishini uqtiradi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda "Xotira joylari" tushunchasi ham mavjud bo'lib, shaxsning xotirasida hamma narsa ham saqlanib qolavermaydi, balki tarixiy xotira maqbul bo'lgan xotirotinigina o'z saqlovxonasiga oladi. Ammo qolgan barcha xotiralar ong ostida saqlanib yashaydi. Zarur bo'lgandagina unga murojaat qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. -Тошкент: Маънавият, 2008. - Б. 16.
2. Дмитриева О. О. "Историческая память и механизмы ее формирования: анализ историографических концепций в отечественной науке" Вестник Челябинского государственного университета. 2015. № 6 (361). История. Вып. 63. С. 132-137.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч, Тошкент: Маънавият, 2008. -Б. 18.
4. Maria Paula Nascimento Araujo and Myrian Sepulveda dos Santos. History, memory and forgetting: political implications. <https://doi.org/10.4000/rccsar.157>.